

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.03/30.04.2021.Ped.82.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**KUCHKARBAYEV RUSTAM UTKUROVICH**

**TALABALARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH**  
**METODIKASINI DASTURIY VOSITALARDAN FOYDALANIB**  
**TAKOMILLASHTIRISH**  
**(Qurilish fizikasi fani misolida)**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (fizika)

**Pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**  
**AVTOREFERATI**

**Chirchiq – 2023**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on  
pedagogical sciences**

**Kuchkarbayev Rustam Utkurovich**

Talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish metodikasini dasturiy vositalardan foydalanib takomillashtirish (Qurilish fizikasi fani misolida).....3

**Кучкарбаев Рустам Уткурович**

Совершенствование методики формирования профессиональной компетентности студентов с использованием программных средств (на примере дисциплины строительной физики) ..... 21

**Kuchkarbaev Rustam Utkurovich**

Improving the Methods of Forming the Professional Competence of Students Using Software Tools (on the example of the subject of building physics)..... 41

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ

List of published works .....45

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.03/30.04.2021.Ped.82.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**  

---

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**KUCHKARBAEV RUSTAM UTKUROVICH**

**TALABALARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI**  
**RIVOJLANTIRISH METODIKASINI DASTURIY VOSITALARDAN**  
**FOYDALANIB TAKOMILLASHTIRISH**  
**(Qurilish fizikasi fani misolida)**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (fizika)

**Pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**  
**AVTOREFERATI**

**Chirchiq – 2023**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/Ped4130 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Doktorlik dissertatsiyasi Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume) Chirchiq davlat pedagogika universiteti veb-sahifasining <https://www.cspi.uz> va «Ziyonet» axborot ta'lim portali [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Jo'raev Husniddin Oltinboyevich**  
Pedagogika fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Ergashov Maxamatrasul**  
Texnika fanlari doktori, professor

**Xujanov Erkin Berdiyevich**  
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Jizzax davlat pedagogika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Chirchiq davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.04.2021.Ped.82.03 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil «15» 03 kuni soat 10<sup>00</sup> da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko'chasi, 104 uy. Tel.: (+99870) 712-27-55; faks: (+99870) 712-45-41; e-mail: [chdpi\\_kengash@umail.uz](mailto:chdpi_kengash@umail.uz)).

Dissertatsiya bilan Chirchiq davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (181 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko'chasi, 104-uy. Tel.: (+99870) 712-27-55; faks: (+99870) 712-45-41))

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «6» 03 kuni tarqatildi.  
(2023-yil «6» 03 da 76 raqamli reyestr bayonnomasi).



**J.E.Usarov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, p.f.d., professor

**D.M.Maxmudova**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, p.f.d., dotsent

**R.A.Eshchanov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash gashidagi ilmiy seminar raisi, p.f.d., professor

## KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyoda oliy ta'limni samarali tashkil etish, uning uzviyligi, uzluksizligi va integrativligini ta'minlashda ta'lim oluvchi shaxsini rivojlantirishga yangicha talablar qo'yilmoqda. Rivojlangan mamlakatlarning nufuzli universitetlari va innovatsion ta'lim markazlarida YUNESKO tashkilotining ta'lim, fan va madaniyat masalalariga oid "Oliy ma'lumotga oid kvalifikatsiyalarni tan olish to'g'risidagi global Konvensiya"<sup>1</sup>ga (Global Convention on the Recognition of Qualifications concerning Higher Education) muvofiq mehnat bozori talablari darajasidagi raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari negizida yaratilgan elektron ta'lim vositalarini keng qo'llash hamda o'quv jarayoniga doimiy ravishda istiqbolli ta'lim texnologiyalarni tatbiq etish alohida e'tirof etiladi.

Xalqaro tajribalarga ko'ra, texnika sohasidagi bo'lajak mutaxassislarni kasbiy kompetentligini rivojlantirishda ularning kasbiy motivatsiya, ixtirochilik va boshqarish, axborotlarni izlab topish va ularga ishlov berish, o'z-o'zini faollashtirish kabi muhim sifat ko'rsatkichlarini rivojlantirishda intellektual axborot resurslarining didaktik imkoniyatlaridan samarali foydalanish muhim o'rin tutadi. Shuning uchun texnika yo'nalishi oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak muhandislarni loyihaviy – konstruktorlik, ishlab chiqarish va tashkiliy-boshqaruv faoliyatlariga kompetensiyalarini rivojlantirishda zamonaviy elektron vositalarning yangi avlodini yaratish va o'quv jarayoniga joriy etish, talabalarining mustaqil bilim olishi uchun dasturiy ta'lim vositalari asosida o'qitish texnologiyalarini ishlab chiqish hamda ta'limning didaktik imkoniyatlarini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda oliy ta'limni modernizatsiya qilish jarayonida malakali mutaxassislarni yetkazib berishga alohida e'tibor qaratilgan. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "Uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlar tayyorlash sifatini davom ettirish"<sup>2</sup> muhim ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Bu esa, texnika oliy ta'lim muassasalarida talabalarining kasbiy kompetentligini shakllantirish shart-sharoitlarini xalqaro ta'lim standartlari darajasida ilmiy-metodik asoslangan tizimini yaratish hamda mustaqil ta'lim olishning funksional mehanizmlarini rivojlantirishda dasturiy ta'lim vositalaridan foydalanishning amaldagi metodikalarini tadqiq etishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida", 2018-yil 19-fevraldagi PF-5349-sonli "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"

<sup>1</sup> [Global Convention on the Recognition of Qualifications concerning Higher Education \(unesco.org\)](http://unesco.org)

<sup>2</sup>Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Харакатлар стратегияси тўғрисида"ги Фармони. //Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари тўплами. -Т., 2017. – Б.39.

va 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli “O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiya tasdiqlash to‘g‘risida” Farmonlari, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-sonli “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarning ijrosini ta’minlashda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari» ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** O‘tkazilgan ilmiy izlanishlar va tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ta’lim jarayonini tashkil etishning tashkiliy va pedagogik jihatlari Sh.E.Qurbanov, E.Seytxalilov va boshqalar; kasb ta’limi nazariyasi va amaliyoti bo‘yicha U.I.Inoyatov, R.X.Djo‘rayev, D.O.Himmataliev, kasb ta’limida faol o‘qitish usullarini qo‘llash bo‘yicha O. A. Qo‘ysinov, S.Yu.Ashurova va boshqalarning ilmiy ishlarida tadqiq etilgan. Zamonaviy elektron ta’lim resurslarini yaratish borasida A.A.Abduqodirov, M.A.Aripov, N.I.Taylaqov, U.Sh.Begimqulov, Q.T.Olimov, N.A.Muslimov, Sh.M. Komilov, Sh.T.Ermatov, A.Ne‘matov, G.Usmonov, M.Olimov, A.Jumaboev va boshqalar ilmiy izlanish olib borganlar.

Elektron ta’lim resurslarini yaratish va ulardan foydalanib o‘qitishni tashkil etish masalalari MDH mamlakatlarining olimlaridan I.V.Robert, Ye.S.Polat, T.A.Bobenko, M.N.Badrutdinov, A.Gafurova, I.G.Zaxarova, V.G.Klimov, I.N.Kovalenko, V.A.Makarov, Ye.D.Petrovskayalarning ishlarida tadqiq qilingan.

Bo‘lajak texnika oliy ta’lim muassasalari mutaxassislarini kasbga tayyorlash muammolariga amaliy yechimlar A.Ernst-Fabian, Ellis A.K., Fouts, J.T. Mohamed Ch.G. W.D.Greinert, B.Kroll, G.Elke va U.Bade-Becker kabi xorijiy olimlarning ilmiy izlanishlarida o‘z aksini topgan.

Ammo, ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, multimediali elektron ta’lim vositalarining imkoniyatlari talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning didaktik vositalari hamda multimediali elektron ta’lim vositalarini yaratishning ilmiy-metodik ta’minoti pedagogik muammo sifatida tadqiq qilish zarurati mavjud.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.**

Tadqiqot ishi Buxoro davlat universiteti ilmiy-tadqiqot rejasining “Oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonini raqamli ta’lim texnologiyalari yordamida tashkil etish” mavzusi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqot maqsadi** talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish metodikasini dasturiy vositalardan foydalanib takomillashtirishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning didaktik vositasi sifatida multimedia texnologiyasi asosida yaratiladigan multimediali dasturiy ta’lim

vositalarining oʻrni va imkoniyatlarini ochib berish;

umumkasbiy fanlar boʻyicha oʻquv-metodik va elektron taʼlim vositalari uchun oʻquv materialini tanlash va tizimlashtirish pedagogik shart-sharoitlarini aniqlashtirish;

mehnat bozori talablaridan kelib chiqib pedagogik-dasturiy vositalar va interfaol metodlarni tizimlashtirish orqali boʻlajak muhandislar uchun “Qurilish fizikasi” hamda “Bino va inshootlar konstruksiyasi” umumkasbiy fani boʻyicha dasturiy taʼlim vositalarini amaliyotda joriy etish;

texnika oliy taʼlim muassasalarida umumkasbiy fanlarni oʻqitishda multimediali dasturiy taʼlim vositalaridan foydalanish koʻnikmalarini virtual taʼlim muhitida baholash mezonlari va sifat koʻrsatkichlarini ishlab chiqish hamda tajriba-sinov jarayonida amalga tatbiq etish.

**Tadqiqot obyekti** texnika oliy taʼlim muassasalarida “5340100-Arxitektura (turlari boʻyicha)” taʼlim yoʻnalishi talabalarini dasturiy taʼlim vositalaridan foydalanib, kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlarini oʻtkazish uchun tanlab olingan oliy taʼlim muassasalaridan 660 nafar talaba ishtirok etdi.

**Tadqiqot predmeti** texnika oliy taʼlim muassasalarida “5340100-Arxitektura (turlari boʻyicha)” taʼlim yoʻnalishi talabalarini kasbiy kompetentligini rivojlantirishning mazmuni, shakli, metodlari va vositalari.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot mavzusiga oid texnikaviy, pedagogik va psixologik ilmiy manbalar, Davlat taʼlim standarti, “5340100-Arxitektura (turlari boʻyicha)” taʼlim yoʻnalishi malaka talabi, oʻquv reja va dasturlari, darsliklar va oʻquv-metodik adabiyotlarni oʻrganish va tahlil qilish, kuzatish, suhbat, anketa, pedagogik tajriba-sinov, tadqiqot natijalarni matematik-statistik qayta ishlash metodlaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda raqamli texnologiyalarni qoʻllash tizimini aks ettiruvchi dasturiy taʼlim resurslaridan teng huquqlilik, oʻzaro integrativlik va nazorat-korreksiyalovchi kabi didaktik-funksional imkoniyatlariga ustuvorlik berish asosida aniqlashtirilgan;

umumkasbiy fanlar boʻyicha oʻquv-metodik materiallarni dasturiy taʼlim vositalarining emerjentlik, natijadorlik va pertinentlik tamoyillari vositasida loyihalash orqali multimediali oʻqitish kontentining oʻquv-strategik taʼminoti mazmunan takomillashtirilgan;

talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishni ishlab chiqarish korxonalari shart-sharoitlari, oʻqitishning intensiv yondashuvlarini inobatga olgan holda pedagogik-dasturiy vositalar va multimediali uch oʻlchovli obyektlarni loyihalash hamda innovatsion oʻqitish metodlarini qoʻllash orqali “Qurilish fizikasi” hamda “Bino va inshootlar konstruksiyasi” umumkasbiy fanlarini oʻqitish metodikasi takomillashtirilgan;

umumkasbiy fanlarni oʻqitishda talabalarning virtual reallik qonuniyatlariga asoslangan audio va vizual materiallarni kompyuter imitatsiya orqali tasavvur qilish koʻnikmalarini modellashtiruvchi, oʻrgatuvchi 3D animatsiyalar, virtual stend va

laboratoriyalardan foydalanib rivojlantirishga oid ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchligi.** Qoʻllanilgan yondashuvlar, usullar va nazariy maʼlumotlarning ilmiy manbalardan olinganligi, keltirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik-statistika metodlari tahlili yordamida asoslanganligi, tadqiqot metodlarining tadqiqot vazifalariga mos ravishda tatbiq etilganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilganligi, ilgari surilgan ilmiy gʻoyalarning oʻtkazilgan tajriba-sinov natijalaridagi ijobiy koʻrsatkich natijalari vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati taklif etilayotgan model, ishlab chiqilgan multimediali elektron taʼlim vositalar texnika yoʻnalishi oliy taʼlim muassasalarida taʼlim sifati va samaradorligini oshirish, oʻquv jarayonini innovatsion yondashuv asosida tashkil etish, oʻquv reja va fan dasturlarini takomillashtirish, talabalarining kasbiy faoliyatga tayyorligining shakllanganligini baholash mezonlarining ularni kasbiy kompetentligini rivojlantirishning nazariy metodologik va amaliy-metodik asoslarni boyitishda qoʻllanilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati ulardan texnika oliy taʼlim muassasalarida mutaxassislar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish boʻyicha chora — tadbirlar dasturlarini ishlab chiqishda dasturiy taʼlim vositalaridan foydalanib umumkasbiy fanlar boʻyicha mashgʻulotlarni tashkil etishga qaratilgan metodik tavsiyalardan esa oʻquv reja va dasturlar hamda malaka talablarini takomillashtirish, darslik va oʻquv qoʻllanmalar yaratishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Dasturiy taʼlim vositalaridan foydalanib talabalarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish boʻyicha ishlab chiqilgan natijalar asosida:

talabalarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda raqamli texnologiyalarni qoʻllash tizimini aks ettiruvchi dasturiy taʼlim resurslaridan teng huquqlilik, oʻzaro integrativlik va nazorat-korreksiyalovchi kabi didaktik-funksional imkoniyatlariga ustuvorlik berishga oid takliflardan “AIF 2/20-Shaxsga yoʻnaltirilgan innovatsion texnologiyalar asosida texnik yoʻnalishlar boʻyicha malakali muhandis kadrlar tayyorlash va oʻqituvchilar malakasini oshirish sifatini yaxshilash” (2019-2021-yy.) mavzusidagi xalqaro amaliy tadqiqot loyihasida foydalanilgan (Oʻzbekiston Respublikasi innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi innovatsiyalarni joriy qilish va texnologiyalar transferi milliy ofisining 2022-yil 22-noyabrdagi 01-02/460-son maʼlumotnomasi). Natijada texnika oliy taʼlim muassasasi talabalarining dasturiy taʼlim vositalariga oid kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish imkonini bergan;

umumkasbiy fanlar boʻyicha oʻquv-metodik materiallarni dasturiy taʼlim vositalarining emerjentlik, natijadorlik va pertinentlik tamoyillari vositasida loyihalash orqali multimediali oʻqitish kontentining oʻquv-strategik taʼminotini mazmunan takomillashtirishga doir takliflardan “Taʼlimda axborot texnologiyalari” oʻquv qoʻllanma mazmuniga singdirilgan (Oʻzbekiston Respublikasi Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligining 2022-yil 1-avgustdagi 257-son buyrugʻi, 257-014-raqamli guvohnoma). Natijada boʻlajak mutaxassislarning texnik ijodkorlik

qobiliyatlarini rivojlantirishda dasturiy ta'lim vositalar asosida o'quv-metodik ta'minotini yaxshilashga, o'qitish metodikasini takomillashtirish imkonini bergan;

talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishni ishlab chiqarish korxonalari shart- sharoitlari, o'qitishning intensiv yondashuvlarini inobatga olgan holda pedagogik-dasturiy vositalar va multimediali uch o'lchovli obyektlarni loyihalash hamda innovatsion o'qitish metodlarini qo'llash orqali "Qurilish fizikasi" hamda "Bino va inshootlar konstruksiyasi" umumkasbiy fanlarini o'qitish metodikasini rivojlantirishga oid ilmiy-metodik tavsiyalaridan 60730100-Arxitektura ta'lim yo'nalishining "Fizika" fanidan namunaviy dasturini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari va ilg'or texnologiyalarni tatbiq etish markazining 2023-yil 26-yanvardagi 02/01-01-03-son ma'lumotnomasi). Natijada, bo'lajak mutaxassislarni dasturiy ta'lim vositalaridan foydalanish hamda ta'lim natijalarini baholash samaradorligini aniqlashga mo'ljallangan axborot-metodik ta'minoti takomillashtirish imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari, jumladan 2 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 19 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, jumladan 5 ta respublika va 2 ta xorijiy davlat jurnallarida hamda 1 ta o'quv qo'llanma nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, dissertatsiyaning hajmi 135 betni tashkil etadi.

## **DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI**

Kirish qismida tadqiqot muammosining dolzarbligi va zarurati asoslangan, ishning maqsadi, vazifalari va obyekti hamda predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, nashr qilingan ishlar va ishning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda dasturiy ta'lim vositalaridan foydalanishning nazariy asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida bo'lajak mutaxassislarning kasbiy kompetentligini takomillashtirishga doir darslik, o'quv qo'llanmalar, dissertatsiyalar tahlil qilingan va zaruriy xulosalarga kelingan. Ularda "Qurilish fizikasi" darslarini tashkil etishning mazmuni, vositalari va darslarni tashkil qilishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlariga doir nazariy ma'lumotlar bayon qilingan. Shuningdek, "kompetentlik" va "kompetensiya", "kasbiy kompetentlik" kabi tushunchalarga berilgan ta'riflar tahlil etilgan. Pedagogikaga oid lug'atlarda, maxsus fanlarni o'qitish metodikasiga doir adabiyotlarda berilgan ma'lumotlar tahlil qilinib, kasbiy kompetentlikning

professor-o'qituvchi faoliyatidagi muhim jihatlari to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Texnik mutaxassislarni samarali tayyorlash uchun axborot muhiti, texnologiyalar va talabalar korxonadagi muhandis texnik muhiti bilan bir xil bo'lishini talab qiladi. Global raqobat vaqtida mahalliy sanoat axborot texnologiyalarining barcha imkoniyatlaridan foydalangan holda dizayn va texnologik, operatsion va boshqaruv vazifalarini hal qila oladigan muhandis kadrlarni talab qiladi.

Texnika oliy ta'lim muassasalarida umumkasbiy fanlarni dasturiy ta'lim vositalari asosida o'qitishni o'quv faoliyatining quyidagi turlarida qo'llash imkoniyatlari aniqlandi:

- yangi sohaga oid nazariy ma'lumotlarni o'rganish va bayon etishda;
- kompyuter dasturlaridan foydalanib virtual laboratoriya ishlarini o'tkazishda;
- talabalarning mustaqil ishlarida;
- ochiq darslar, telekonferensiyalar, audiokonferensiyalar;
- o'rganilgan o'quv materialini mustahkamlash, nazorat qilish va tekshirishda;
- amaliy mashg'ulotlarda.


O'zbekistonda bugungi kunda bino va inshootlarni loyihalashda eng ko'p qo'llaniladigan dasturiy ta'minot bu AutoCAD. Ushbu dasturiy paket orqali faqat juda kichik va juda oddiy loyihalarni ishlab chiqishda foydalanish mumkin, faqat loyiha chizmalari muntazam ishini avtomatlashtirishda foydalanish mumkin.

Binolarning dizayni yashash uchun hayot muhitining qulay holatini ta'minlashi zarur. Yuqorida muhokama qilingan dizayn vazifalarini to'g'ri hal etish binoning ichki muhitning qulayligini to'liq ta'minlamaydi. Binoda fizik qulaylik hissi yaratadigan ichki muhitning bunday jismoniy parametrlarini ta'minlash kerak. Bu harorat va namlik sharoitlarini, havo muhitining optimal parametrlarini ta'minlash, yorug'lik va akustik qulaylikni yaratish, izolyatsiya, quyoshdan himoya qilish va xonalarning ovoz o'tkazmasligi kabi vazifalarni hisoblash kerak bo'ladi. Bu inson tomonidan bevosita seziladigan omillardir.

Binolarni loyihalash hamda qurishga ta'sir qiluvchi iqlim omillari quyidagilardan iborat:

- 1) havo harorati;
- 2) havoning namligi;
- 3) shamol, uning yo'nalishi va tezligi;
- 4) quyosh nurlanishi;
- 5) osmonning tabiiy yoritilishi va yorqinligining kunlik va yillik kursi;
- 6) bulutli, ochiq va yarim tiniq osmonning ehtimoli;
- 7) yomg'ir va qor yog'ishi, qor yuklari, qor tashish ehtimoli va hajmi statistikasi;
- 8) tuproqning muzlash chuqurligi.

Iqlim tahlili iqlimni hisobga olgan holda ma'lum bir hududda loyihalashtirilishi kerak bo'lgan bino turini aniqlash imkonini beradi (1-rasm).




**1-rasm. Loyihalashda quyosh trayektoriyasining ko‘rinishi.**

KYL-Kompyuter yordamida loyihalash (inglizcha CAD, Computer-AIDED Design) — ishlab chiqarish (yoki qurilish) obyektlarini loyihalash (ishlab chiqish), loyiha va loyihaning texnologik hujjatlarni tayyorlash uchun mo‘ljallangan dasturiy ta’minot to‘plami.

Ko‘p funksiyali KYL tizimlarining komponentlari an’anaviy ravishda CAD, CAM, CAE uchta asosiy qismlarda birlashtirilgan. CAD (Computer Aided Designed) blok moduli asosan grafik ishlarni bajarish uchun mo‘ljallangan. CAM (Computer Aided Manufacturing) moduli — ishlab chiqarishni texnologik tayyorlash muammolarini hal qilish uchun mo‘ljallangan. CAE (Computer Aided Engineering) moduli — muhandislik hisob-kitoblari, loyihani tahlil qilish va tekshirish uchun mo‘ljallangan.

Autodesk Revit Structure — qurilish konstruksiyalarini hisoblash va loyihalash uchun maxsus funksiyalarni o‘z ichiga oladi. Dasturiy ta’minot Building Information Modeling (BIM) texnologiyasiga asoslangan. Yuqoridagi dasturiy ta’minotdan foydalangan holda, Revit Structure dasturi bir nechta konstruksiyalarni birlashtirishni ta’minlaydi, loyihalashdagi xatoliklarni kamaytiradi hamda konstruktiv loyihachi va arxitektorlar o‘rtasidagi hamjihatlikni ta’minlaydi (2-rasm).

Mashq qildiruvchi dasturlarning maqsadi malaka va ko‘nikmalarni mustahkamlashdan iborat. Buning uchun nazariy material allaqachon o‘rganilgan bo‘lishi kerak. Dasturlarning bunday turini qo‘llashning mohiyati shundan iboratki, ta’lim oluvchi masalalarni yechadi va quyilgan savollarga javob beradi. Natijalar dastur tomonidan “to‘g‘ri / noto‘g‘ri” mezonini bo‘yicha qayta ishlanadi. So‘ngra to‘g‘ri javob va yechimlar miqdori hisoblab chiqiladi. Bunday dasturlar bilan ishlashda ta’lim oluvchi ekranda to‘g‘ri javob uchun rag‘batlantiruvchi iboralarni ko‘rish va noto‘g‘ri javob berilganda eslatma olish imkoniyatiga ega bo‘ladi.



**2-rasm. Autodesk Revit Structure dasturida loyihalash.**

Quruvchi muhandislar uchun bugungi kunda faoliyat olib borishlarida aynan zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyalarni bilish o‘z sohasini yanada yaxshi bilish demakdir. Qurilishda axborot texnologiyalar fanining asosiy qismi bu loyihalar yaratishda AutoCAD dasturini 2D va 3D modellashtirish buyruqlarini va undan professional darajada foydalanishni o‘rganishdan iborat.

Yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini shakllantirish tizimiga asosan avvallari faqat fundamental fan sifatida qaralib kelgan tabiiy fanlar endilikda ixtisoslik fanlarini chuqur o‘rganish uchun lozim bo‘lgan asosiy bo‘g‘inning bir o‘zagi sifatida tan olinmoqda. Shunday ekan, har bir mavzu ixtisoslikni hisobga olingan holda tushuntirilishi, ishlab chiqarishda qo‘llanilish darajasi va sohaga oid masalalarning berilishi ijobiy natijalarga olib kelishi isbotlandi. Ma’lumki, fizika — fundamental fan sifatida texnikaning asosini tashkil etadi. Bo‘lajak mutaxassis nafaqat fizik hodisa va qonuniyatlarni yaxshi bilishi, balki uning o‘zi egallagan sohada qanday ahamiyat kasb etishini yaxshi bilish kerak. Buning uchun fizika amaliy mashg‘ulotlarida nazariya va amaliyot aloqasini ta’minlovchi masalalarni yechish, bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy kompetentligini oshirishdagi dastlabki qadamlardan biri hisoblanadi. Amaliy mashg‘ulotlarda kasbga yo‘naltirilgan masalalarni yechish nafaqat fanni chuqur o‘rganishga olib keladi, shuningdek, talabalarda arxitektura sohasidagi ilmiy tadqiqotlarni olib borishning dastlabki ko‘nikmasini ham yaratadi. Bu esa ta’lim samaradorligi hamda yetuk mutaxassislarga qo‘yiladigan talablarni yanada oshirishga imkoniyat yaratadi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobida **“Talabalarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish metodikasini dasturiy vositalardan foydalanib takomillashtirish”** deb nomlanib, mazkur bobda umumkasbiy fanlarni o‘qitish metodikasini dasturiy ta’lim vositalari asosida takomillashtirish modeli, bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy faoliyatga tayyorlashda dasturlashtirilgan o‘quv-metodik ta’minot asosida o‘qitish metodikasi yoritib berilgan, dars ishlanmalari shakllantirilgan va o‘qitish imkoniyatlari bo‘yicha metodik tavsiyalar bayon qilingan.

Ta'lim sifati va samaradorligini ta'minlashda ko'rgazmali metodlar ham alohida ahamiyatga ega. Ko'rgazmali metodlardan foydalanish zaruriyati ko'rsatmalilik tamoyiliga amal qilish maqsadga muvofiq ekanligida ko'rinadi. Inson miyasining 30 foiz hajmini ko'rishni, faqat 3 foizigina eshitishni ta'minlovchi neyronlar tashkil etadi. Pedagogik-psixologik yo'nalishda olib borilgan tadqiqotlar natijalaridan ma'lum bo'ladiki, shaxs tomonidan o'zlashtirilayotgan bilimlarning 85 foizi ko'rish retseptorlari yordamida o'zlashtiriladi.

Predmetlar, hodisa yoki jarayonlarni tabiiy holatda namoyish qilish yanada ko'proq didaktik samara beradi, biroq, bunday namoyishni amalga oshirish har doim ham mumkin bo'lavermaydi. Shu bois professor-o'qituvchilar tabiiy predmetlarni namoyish qilishda sun'iy muhitga murojaat qilishadi (masalan, dastgohlar bilan ishlab chiqarish korxonalarida tanishish) yoki sun'iy ravishda yaratilgan obyektlar (maket, model, mulyaj, skelet va boshqalar)dan foydalaniladi.

Bu metod yordamida professor-o'qituvchilar ta'lim oluvchilarni mustaqil ravishda obyektlarni o'rganish, zaruriy o'lehov ishlarini olib borish, aloqadorlikni o'rnatish, shuningdek, hodisalarning mohiyatini anglab yetishga bir so'z bilan aytganda faol bilish jarayoniga yo'naltirishi lozim. Namoyish samarasi ko'p jihatdan professor-o'qituvchini ko'rgazmali materialni ta'lim oluvchining tayyorgarlik darajasiga mos holda to'g'ri tanlanishi hamda mumkin qadar ularning diqqatini namoyish etilayotgan predmetning muhim jihatlariga yo'naltirishiga bog'liqdir.


O'zbekistonda olib borilayotgan quruvchilik sohasi haqida ma'lumotlar bilan tanishtirish, savol-javob va bahs-munozaralar o'tkazish talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarini yanada rivojlantiradi.

Shuning uchun umumkasbiy fanlarni o'qitishni doimo takomillashtirib borish, o'qitish vositalari va metodikasidan to'liq foydalanish har bir professor-o'qituvchining vazifasi hisoblanadi.

Professor-o'qituvchi talabalar bilan mavzuni ishlab chiqish, bahs va munozaralarga tez kirishish, tezislarni tayyorlash, axborotlar almashish, hamkorlikda ishlash, suhbatlar o'tkazish kasbga qiziqtirish kabi vazifalarni amalga oshiradi. Talabalarni kasbga yo'naltiruvchi savollar, ish rejalar ularning faoliyatini va professor-o'qituvchining amalga oshirishda nazorat qilishda baholashda muammolarni yechishda, shaxsni rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Professor-o'qituvchi talabalarning bilimlarini mustahkamlash, tadbirlar o'tkazish, mustaqil ishlash tajriba almashish asosida kasbiy kompetensiyalariga oid amaliy harakatlarni amalga oshiradi.

Tadqiqot davomida olib borilgan kuzatishlar va izlanishlar natijasida umumkasbiy fanlarni dasturiy ta'lim vositalari asosida o'qitish metodikasini ishlab chiqish va shu asosda talabalarni texnika yo'nalishlariga qiziqishlarini oshirish orqali kasbga yo'naltirish faoliyatlarini tashkil qilishni lozimligini ko'rsatdi.

Qurilish fizikasi fani hamma vaqt ijtimoiy, siyosiy va g'oyaviy omillarni hisobga olgan, ularga mos holda rivojlangan. Injener quruvchilar arxitektura-ning, asosan texnik masalalari bilan ish ko'rib, konstruksiyalar qurilish usullarini o'zida aks etgan estetik imkoniyatlarini yaqqol tasavvur qilishlari kerak bo'ladi. Bu



**3-rasm. Issiqlikning xona bo‘ylab tarqalish ko‘rinishi.**

jihatdan qaraganda, arxitekturaning rivojlanish tajribasi nafaqat keng ma’lumotlar beradi, shuningdek, u muammoni nazariy o‘ylashga o‘rgatadi, konstruksiyalar va badiiy shakllarning o‘zaro bog‘liqligiga oid ko‘p qirrali nazariy masalalarni hal qilishga yordam beradi.

Texnika oliy ta’lim muassasalarida dasturiy ta’lim vositalari samaradorligi va ularni amalga oshirish funksiyalari, tashkiliy-pedagogik jihatlarini ishlab chiqish muhim hisoblanadi.

Chunki, dasturiy ta’lim vositalari o‘quv materiallarini modernizatsiyalash, talabalarning bilish faolligini oshirish, o‘qitishning interaktiv metodlaridan foydalanish va ularning bilimni nazorat qiluvchi vosita va usullarni ishlab chiqish, mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish va ijodiy tafakkurini shakllantirish kabi vazifalarni amalga oshirishni talab etadi.

Qurilish fizikasi fani loyihalash bilan bog‘liq “Arxitekturaviy loyihalash”, “Arxitektura tarixi va nazariyasi”, “Arxitekturaviy qurilmalar” fanlari bilan bevosita uzviy bog‘liq. Binoda yoki uning qismlarida sodir bo‘ladigan fizikaviy jarayonlar asosan uch xil tabiatga ega: issiqlik, yorug‘lik, akustika. Binoning turli qismlarida issiqlikni uzatilishini dasturiy ta’lim vositalari yordamida modellashtirildi (3-rasm).


Binolardagi issiqligini saqlab qolishda, birinchi navbatda, loyiha ma’lumotlariga ko‘ra yoki loyiha jarayonida binoni isitish uchun issiqlik energiyasining hisoblangan solishtirma iste’molini belgilash, so‘ngra ta’sirni tahlil qilish kerak.

Ilmiy tadqiqot ishlarini o‘rganish va tahlil qilish natijasida hamda amaliy pedagogik tajribadan kelib chiqib, umumkasbiy fanlarni o‘qitish metodikasini dasturiy ta’lim vositalari asosida takomillashtirish modeli ishlab chiqildi (4-rasm).

Model orqali umumkasbiy fanlarni o‘qitish metodikasini dasturiy ta’lim vositalari asosida takomillashtirish maqsadi (Davlat ta’lim standarti, malaka talablari asosida “Qurilish fizikasi” fanini dasturiy ta’lim vositalari asosida o‘qitish orqali bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish hamda o‘qitishni takomillashtirish), tamoyillar, yondashuvlar (texnologiya, vosita, metodlar, shakllar kabi komponentlardan iborat), baholash mezonlari (faoliyatli, kognitiv, motivatsion), baholash darajalari (yuqori, o‘rta, past), natija (Umumkasbiy fanlarni o‘qitish metodikasini dasturiy ta’lim vositalari asosida takomillashadi, malakali mutaxassislar) tayyorlashga erishiladi.

Modelda ijtimoiy buyurtma sifatida “DTS talablari asosida malakali mutaxassis kadrlarni tayyorlash” nazarda tutilgan. Maqsad sifatida “Qurilish

fizikasi fanini o'qitish mazmunini dasturiy ta'lim vositalari asosida takomillashtirish"ga e'tibor qaratiladi.



**4-rasm. Umumkasbiy fanlarni o'qitish metodikasini dasturiy ta'lim vositalari asosida takomillashtirish modeli.**

Bo'lajak mutaxassislarga umumkasbiy fanlarni o'qitish metodikasini dasturiy ta'lim vositalari asosida o'qitish orqali bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish hamda o'qitishni takomillashtirish tashkiliy tuzilmasi komponentlari quyidagilardan: Texnika oliy ta'lim muassasalarida kadrlar tayyorlash hamda Qurilish fizikasi fanini o'qitishga qo'yiladigan talablar, Ta'lim jarayonini tashkil etishda foydalaniladigan asosiy me'yoriy hujjatlar, Nazariy va amaliy mashg'ulotlarda (o'rganiladigan materiallar) mazmunini ishlab chiqish uslubiy ta'minotni takomillashtirishdan iborat bo'ladi.

Umumkasbiy fanlar o'qituvchilari kasbiy tayyorgarligi tuzilmasi komponentlari to'g'ri yo'lga qo'yilganidagina yangi ijod namunasi dunyoga keladi. Bu esa bo'lajak mutaxassislarni dasturiy ta'lim vositalaridan foydalanib o'qitishda asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Yuqoridagi komponentlar asosida yondashuvlar hamda tamoyillar tashkil qilinadi. Yondashuvlar ya'ni texnika oliy ta'lim muassasalari talabalari kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirishda dasturiy ta'lim vositalaridan foydalanishni tashkil etish shaxsga yo'naltirilgan, tizimli, faoliyatli, kompetensiyaviy, amaliyotga yo'naltirilgan orqali amalga oshiriladi.

“Texnika oliy ta'lim muassasalarida talabalarning kasbiy kompetentligini dasturiy ta'lim vositalaridan foydalanib takomillashtirish - talabalarni fizika va boshqa umumkasbiy fanlardan egallangan kompetensiyalarini qo'llagan holda dasturiy ta'lim vositalaridan foydalanib turli bino va inshootlarni loyihalash, modellash jarayonida qo'llay olishidir” – deb mualliflik ta'rifi ishlab chiqilgan.

Axborot jamiyatining rivojlanishi texnika oliy ta'lim muassasalarida barcha ta'lim yo'nalishlari bo'yicha mutaxassislarni tayyorlashga yangicha yondashuvlarni talab qiladi va bu albatta mutaxassislar uchun dolzarb bo'lib qolmoqda. Umumkasbiy fanlar bo'yicha texnika oliy ta'lim muassasalarining davlat ta'lim standartlarini o'rganish shuni ko'rsatdiki, axborot asrining boshlarida ishlay oladigan mutaxassisni tayyorlash mumkin emas. Axborot asri ostonasida shaxsiy kompyuter yordamida individual vazifalarni bajarish qobiliyati mutaxassis uchun yetarli emas.

O'zbekistondagi mehnat bozori mutaxassislar faoliyatining barcha sohalarida professionallik darajasiga talablar qo'yadi. Hozirgi vaqtda texnika oliy ta'lim muassasalarining ma'lumotni tahlil qilish va qarorlar qabul qilish uchun global va mahalliy axborot oqimlaridan foydalanishga imkon beradigan kompyuterlar kerak. Buning uchun ma'lum bir axborot madaniyati talab etiladi.

Haqiqiy pedagogik sharoitda yangi AKTlarga asoslangan fanlararo bog'lanish, tizimli-yaxlit yondashuvni amalga oshirishning qiyinligi, avvalo, qurilish sohasidagi turli profillash kafedralarida dasturiy ta'lim vositalarni qo'llash darajasida sezilarli bo'shliq mavjudligida va ularni amalga oshirishning yagona metodologiyasi mavjud emasligida. Ushbu muammolarni axborot, kasbiy va maxsus bloklar fanlarini o'rganish jarayonida ta'lim muammolarini hal qilishda uning imkoniyatlarini bosqichma-bosqich o'zlashtirish bilan asosiy va maxsus dasturiy ta'minotni oxiriga yetkazish vositasi sifatida qo'llash orqali hal qilish mumkin.

Texnika va texnologiyalarning jadal rivojlanib borishi har bir shaxs va har bir korxonada yangidan yangi talablar tizimini ilgari surmoqda. Korxonalar kuchli raqobat sharoitida ijtimoiy talablar tizimini o'rgangan holda doimiy ravishda

